“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=310

2025-yil
2-son
iyul
ISSN 3093-8546



Konstitutsiyaviy huquq tizimi va uning boshqa huquq tarmoqlari bilan o‘zaro bog‘liqligi

Marjona Muxammadova,
O‘zbekiston Milliy universiteti
Yurisprudensiya: Biznes huquqi 2-bosqich talabasi
e-mail: m.muhammadova@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada konstitutsiyaviy huquq tizimi, uning asosiy institutlari hamda boshqa huquq tarmoqlari bilan o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Xususan, fuqarolik, jinoyat, mehnat va ma’muriy huquq tarmoqlari konstitutsiyaviy huquq tamoyillari bilan qanday uzviy bog‘langanligi tahlil qilinadi. Konstitutsiya huquq tizimining yadro qismini tashkil etib, barcha huquq tarmoqlarining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi. Maqolada shuningdek, konstitutsiyaviy normalarning boshqa tarmoqlardagi normativ-huquqiy hujjatlarga ta’siri haqida ham fikr yuritilgan.

Калит сўзлар. Konstitutsiyaviy huquq, huquq tarmoqlari, tizim, huquqiy bog‘liqlik, Konstitutsiya, normativlik

Аннотация. В данной статье рассматривается система конституционного права и её взаимосвязь с другими отраслями права. Особое внимание уделяется анализу взаимодействия принципов конституционного права с гражданским, уголовным, трудовым и административным правом. Конституция рассматривается как ядро правовой системы, определяющее направление развития всех отраслей. Также рассматривается влияние норм конституционного права на другие нормативно-правовые акты.

Ключевые слова. Конституционное право, отрасли права, система, правовая взаимосвязь, Конституция, нормативность

Annotation. This article explores the system of constitutional law and its interrelation with other branches of law. It analyzes how the principles of constitutional law interconnect with civil, criminal, labor, and administrative law. The Constitution serves as the core of the legal system and determines the general directions of all other legal fields. The article also discusses the impact of constitutional norms on other normative legal acts.

Keywords. Constitutional law, legal branches, system, legal interrelation, Constitution, normativity

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Har qanday demokratik jamiyat huquqiy tizimining asosini konstitutsiyaviy huquq tashkil etadi. Chunki, ushbu huquq sohasi davlat hokimiyatining shakllanishi, mamlakatning ma’muriy-hududiy tuzilishini, jamiyat a’zolarining huquq va erkinliklarini, davlat tuzilmasi va boshqaruv mexanizmini belgilab beradi. Shu jihatdan konstitutsiyaviy huquq huquq tizimining printspial va ma’naviy asosidir. Shunga qaramasdan, jamiyatda mavjud bo’lgan jamiki ijtimoiy munosbatlarni birgina konstitutsiyaviy huquq tartibga sola olmaydi va bu boshqa huquq tarmoqlarining yuzaga kelishini talab qiladi. Huquq tarmoqlari o‘zaro aloqador holda faoliyat yuritadi. Ushbu tarmoqlarning mustaqil, ya’ni o‘zi tartibga solishi kerak bo‘lgan sohalari mavjud bo‘lsa-da, ular o‘z vazifalarini konstitutsiyaviy normalar va tamoyillar asosida amalga oshiradi.

Mazkur maqolada konstitutsiyaviy huquq tizimi tushunchasi, uning asosiy institutlari va ularning fuqarolik, jinoyat, mehnat, ma’muriy huquq kabi tarmoqlar bilan uzviy bog‘liqligi, o‘zaro ta’siri va konstitutsiyaviy normalarning boshqa huquq sohalaridagi o‘rni atroflicha yoritiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasi asosida ushbu bog‘liqliklar real misollar orqali tahlil qilinadi.

Konstitutsiyaviy huquq asosiy ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig‘indisi, huquq tizimining yetakchi sohasi. Konstitutsiyaviy huquq normalari davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va hududiy tuzilishi, uning fuqarolik jamiyati institutlari bilan munosabatlari tartibini, fuqaro va shaxs huquq hamda erkinliklari amalga oshirilishining asosiy tamoyillarini, davlat hokimiyati organlari tizimini belgilaydi [1].

Konstitutsiyaviy huquq huquqni alohida tarmog‘i bo‘lib, mamlakatning huquq tizimining tarkibiga kiradi, shu bilan birga u huquq tizimida yetakchi huquq hisoblanadi. Konstitutsiyaviy huquq ma’lum ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig‘indisidan iborat. Bu ijtimoiy munosabatlar jamiyat, inson, davlat o‘rtasida vujudga keladi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi – mamlakatning konstitutsiyaviy tuzum asoslarini, jamiyat va shaxs munosabatlarining (jamiyatning iqtisodiy negizi, jamoat birlashmalari, oila, ommaviy axborot vositalari) asoslarini, mamlakatning davlat va ma’muriy-hududiy tuzilishi asoslarini, davlat hokimiyatini tashkil etish asoslarini belgilovchi, o‘rnatuvchi huquqiy normalar yig‘indisidir [2:188].

Konstitutsiyaviy huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish jarayonida ba’zi bo‘shliqlarga ega bo‘lganligi sababli, keyinchalik ushbu huquq tarmog‘idan boshqa huquq tarmoqlari ajralib chiqqan. Shu sababdan ham, har bir huquq tarmog‘ining konstitutsiyaviy huquq sohasi bilan uzviy bog’liqligi mavjud. Konstitutsiyaviy huquqning fuqarolik huquqi bilan bog‘liqligiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Konstitutsiya shaxsiy va mulkiy huquqlarning konstitutsiyaviy kafolatlarini belgilaydi. Bu fuqarolik huquqidagi

mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solishda asos vazifasini bajaradi. Fuqarolik huquqidagi xususiy mulk daxlsizligi, shartnoma erkinligi, tijorat faoliyati erkinligi bundan tashqari munosabatlarda tomonlarning huquq va majburiyatlarining yuzaga kelishi, ushbu huquqlarning ta’minlab berilishi, majburiyatlarning bajarilishi kabi tushunchalar Konstitutsiyada o‘z aksini topgan. Konstitutsiyada belgilanishicha, O‘zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta’minlanadi. Unga ko‘ra, xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor o‘z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas [3].

Konstitutsiyaviy huquq o‘z o‘rnida jinoyat huquqi bilan ham ayrim bog‘liqliklarga ega. Jinoyat kodeksining vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo‘riqlash, shuningdek jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni respublika va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir [4]. Ushbu vazifalarning ham negizida Konstitutsiya turibdi. Jinoyat huquqining asosiy prinsiplari – aybsizlik prezumpsiyasi, shaxs daxlsizligi, noqonuniy hibsga olmaslik, inson sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish kabi qadriyatlar Konstitutsiyada belgilangan. Jinoyat kodeksi ushbu prinsiplarga tayanadi, shuning uchun jinoyat huquqi konstitutsiyaviy me’yorlar bilan chambarchas bog‘liq. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasi va boshqa bir qancha moddalarida ushbu huquqlar kafolati belgilab qo‘yilgan.

Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo‘li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o‘zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta’minlanadi.

Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin.

Hech kim o‘ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas.

Agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas.

Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o‘ziga nisbatan insoniy muomalada bo‘linishi hamda inson shaxsiga xos bo‘lgan sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi huquqiga ega.

Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos

bo‘lishi mumkin emas[5].

Konstitutsiyada fuqarolarning mehnat qilish huquqi, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, adolatli ish haqi olish, xavfsiz, gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, dam olish huquqi kafolatlangan. Mehnat kodeksidagi barcha normalar ana shu konstitutsiyaviy asoslardan kelib chiqadi. Shundan kelib chiqadiki, mehnat huquqi ham konstitutsiyaviy huquq bilan bog’liqliklarga ega.

Mehnat va mashg‘ulotlar sohasida kamsitish taqiqlanadi. Jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, qarindoshlarida sudlanganlikning mavjudligi, mulkiy holati va mansab mavqeyi, yashash joyi, dinga bo‘lgan munosabati, e’tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek xodimlarning ishchanlik sifatlari va mehnati natijalari bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa jihatlariga qarab mehnat va mashg‘ulotlar sohasida biror-bir to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita cheklovlar belgilash, xuddi shuningdek biror-bir to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita imtiyozlar berish kamsitishdir[6]. Mehnat qonunchiligidagi ushbu tamoyilning ildizi ham konstitutsiyaviy huquqqa borib taqaladi. O‘zbekiston Respublikasi Asosiy qonunining 19-moddasida fuqarolar tengligi belgilab qo‘yilgan.

Ma’muriy huquq bilan konstitutsiyaviy huquq bog‘liqligi haqida gapiradigan bo‘lsak, davlat boshqaruvi, ijro etuvchi hokimiyat organlarining vakolatlari, fuqaro va davlat o‘rtasidagi munosabatlar Konstitutsiyada belgilanadi. Ma’muriy huquq esa bu me’yorlarni amalga oshiradi, ya’ni Konstitutsiyada belgilangan ijro etuvchi hokimiyat tizimini tartibga soladi. Bu sohaga oid qarorlar konstitutsiyaviy qonunlarga zid bo‘lishi mumkin emas.

Misol tariqasida aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XX bobida Vazirlar Mahkamasining vakolatlari va tuzilmasi belgilangan. Unda ijro etuvchi hokimiyat organlari qanday tuzilishi, kim tomonidan tayinlanishi va qanday mas’uliyatga ega bo‘lishi aniqlangan.

“Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonun yoki boshqa ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini tartibga soluvchi ma’muriy-huquqiy normativ hujjatlar orqali Vazirliklar, agentliklar va mahalliy ijroiya organlarining aniq vakolatlari, xizmat intizomi, hujjatlar bilan ishlash tartibi belgilanadi[7].

Xulosa qilib aytganda, konstitutsiyaviy huquq huquqiy tizimning asosiy poydevori bo‘lib, barcha huquq tarmoqlari unda belgilangan tamoyillarga asoslanadi. Fuqarolik, jinoyat, mehnat va ma’muriy huquq tarmoqlari konstitutsiyaviy normalarni rivojlantiradi va amaliyotda tatbiq etadi. Aynan Konstitutsiya orqali huquqiy davlat, qonun ustuvorligi va inson huquqlarining kafolati ta’minlanadi. Shu bois, konstitutsiyaviy huquqning boshqa huquq tarmoqlari bilan uzviy bog‘liqligini anglash huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.

2. Musayev B.T., Aliyeva K.R., Narimanov B.A. Konstitutsyiyaviy huquq. // Darslik. – Toshkent: TDYU, 2020. 188-b.
3.
4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
6. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi
7. O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonuni